

VATANPARVARLIK YUKSAK BURCH

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna

DXX CHQ "Yosh chegarachilar"

harbiy-akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

Alimbayev Muxammadali Azamatovich

DXX CHQ "Yosh chegarachilar"

harbiy-akademik litseyi 1-bosqich o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari, vatan tushunchasi va yoshlarda zarur bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan

Kalit so'zlar: Buyuk davlat arbobi, diplomat, Temur tuzuklari, adolatli tamoyillar, Temuriylar davlati, insonparvar, qonun-qoida, adolat, tartib-intizom, mo'g'ullar.

Bugun odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga yechim izlashga qaratilgan ulug'vor ishlar haqida ko'p gapirish mumkin. Xo'sh, ana shu ezguliklar, xayrli tashabbuslar qayerdan quvvat olmoqda? Albatta, ko'ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan! "Elga qo'shulg'on esh topti", deb bejiz aytmagan Hazrat Navoiy.

Vatanparvarlik – bu har bir insonning o'z vataniga nisbatan chuqur sevgi, sadoqat va hurmatini anglatadi. Bu tushuncha tarix, madaniyat, til va an'analar bilan bevosita bog'liq. Vatanparvarlik nafaqat mamlakatga bo'lgan hissiy bog'liqlik, balki uning taraqqiyoti va farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish, mamlakatni himoya qilish, uning qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishni anglatadi. Vatan! Doim bu so'zni eshitganimizdabuton vujudimiz ila bir ajib tuyg'uni his qilamiz va tuyg'ularimiz jumbushga kelib, yuragimiz qinidan chiqadigandek to'xtovsiz ura boshlaydi. Shu shijoat ila mard o'g'lonlarimiz, muqaddas diyor farzandlari o'z yurtining jannatmakon husnini abadiy saqlanib qolishini istashadi va kerak bo'lsa u uchun jon olib, jon berishadi. Haqiqiy mard inson holbuki, u erkak yoki ayol bo'lishidan qat'iy nazar kindik qoni to'kilgan bu zamini ko'z qorachig'idek asrashga intiladi. Chinakam vatanparvar inson kunni kun, tunni tun, issiq-sovuqligiga qaramay, chegarani muhofaza etadi. Uning hayolida faqatgina birgina o'y bor, u ham bo'lsa, yurtining bir hovuch tuprog'iga ham dushman qadami yetmasligidir.

Vatanparvar bo'lish shuningdek, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashni ham o'z ichiga oladi. Har bir inson o'zining milliy madaniyatiga hurmat bilan qarab, uning kelajak avlodlarga yetib borishini ta'minlashi kerak. Bu tarixiy yodgorliklarni asrab-

avaylash, til va adabiyotga g'amxo'rlik qilish, milliy an'analarni davom ettirish kabi yo'llar orqali amalga oshiriladi. Bu diyor bizdan oldin juda ko'p urishlarga, qo'zg'olonlarga guvoh bo'lgan va bu zaminda ko'plab askarlarning, ajdodlarimizning qonlari to'kilgan.

Tarixdan biz o'zbeklar jangari, jasur va barcha sohalarda rivojlangan xalqmiz. Bizning diyorimizga qadam bosish tugul, ko'z qiri bilan qarashga ham bosqinchilarning yuragi dov bermaydi. Chunki, yurtimizga yovuz niyat bilan kelganlar afsuslanmasdan qolmagan.

Vatanparvar bo'lish – bu nafaqat vatanga bo'lgan sevgini, balki unga xizmat qilishni, uni rivojlantirishni, milliy qadriyatlarni saqlashni anglatadi. Har bir fuqaro o'z yurtiga sadoqat bilan xizmat qilsa, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishi mumkin. Vatanparvarlik – bu shaxsiy mas'uliyat va xalqning farovonligi uchun kurashishdir. Va yana shuni ta'kidlash joizki, vatanparvarlik – bu faqatgina o'z vataniga bo'lgan sevgi emas, balki uning rivojlanishiga qo'shilgan hissa, uning hurmatga loyiq qadriyatlarini saqlash va ularga sadoqatli bo'lishdir. Har bir fuqaroning vatanparvarlikni o'z hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. O'zini vatanparvar deb bilgan har bir inson, nafaqat o'z xalqini, balki butun dunyo hamjamiyatini hurmat qilishni o'rganishi kerak.

Vatanning qiymati – sen u yerda boshqa joylardagiga nisbatan adolat ko'proqligini ko'rishingdir. Vatanning qiymati – sen u yerda boshqa joylardagiga nisbatan muhabbat ko'proqligini ko'rishingdir. Agar Vatan himoya, adolat va muhabbatdan xoli bo'lsa, fuqarolar musofirga aylanib qoladi.

Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo'lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir.

Vatanparvarlik — yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu — vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqatish demakdir

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash — odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Bugun odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga yechim izlashga qaratilgan ulug'vor ishlar haqida ko'p gapirish mumkin. Xo'sh, ana shu ezguliklar, xayrli tashabbuslar qayerdan quvvat olmoqda? Albatta, ko'ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan! "Elga qo'shulg'on esh topti", deb bejiz aytmagan Hazrat Navoiy.

Uzbek xalqi tinchligini yuksak qadrlaydi, uni uzi orzu-intilishlari, maqsadmuaddolari ruyobga chiqishning kafolati deb biladi. Xolbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka kutariladi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Mavarounnahrda hukmronlik qilgan qiriq yil mobaynida mamlakatda tinchlik – barkarorlik ustivor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan. Bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'ha zaminimiz gullab-yashnagan.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamalakatimizni tajavuskor kuchlardan himoya qilish doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan g'oya jamiyati turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzijev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqishga ko'taramiz. Toshkent, O'zbekiston' 2017y.
2. Beloleva G.V., Shmeleva G.M. Tolerantnost' v pedagogike. M., 2002y.
3. Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. T.; Universitet'. 2007y.
4. Nemkova M. Razvitiye kul'tury mejnachional'nykh otnosheniy u shkol'nikov — Ulyanovsk, 2003y.
5. Turdiyev B. S. The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – No. 6. – S. 229-233.
6. Turdiyev B. S. Spiritual renewal and interethnic relations in the strategy of actions Teoriya i praktika sovremennoy nauki. – 2018. – No. 3. – S. 85-89.
7. Sobirovich T. B. O'zbekiston demokratik jamiyat taraqqiyoti rivojida ma'naviy yangilanishlar strategiyasining roli Imom Buxoriy saboqlari. – 2020. No. 2. – S. 118-121.